

CHO'L PON IJODIDA TURKISTON MUXTORIYATI VA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

Gadayeva Mohigul Muxamedovna

Osiyo xalqaro universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

mohigulgadayeva@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22655259>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan siyosiy jarayonlar, milliy uyg'onish harakati va 1917-yilda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatining tarixiy ahamiyati Abdulhamid Cho'lpon faoliyati bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishiga olib kelgan siyosiy-ijtimoiy omillar, 1917-yil Fevral inqilobidan keyingi milliy siyosiy harakatlar, Qo'qon shahrida chaqirilgan Umumturkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi va Muxtoriyat hukumatining tashkil etilishi yoritiladi. Shuningdek, Cho'lponning milliy uyg'onish harakatidagi o'rni, uning "Ozod turk bayrami" she'ri orqali Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagani va mazkur asarning o'zbek davlatchiligi tarixidagi ramziy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Turkiston Muxtoriyatining qisqa muddatli faoliyati va 1918-yil fevralida tugatilishi ham tarixiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar:

turkiston, milliy istiqlool, milliy uyg'onish, jadidchilik, milliy davlatchilik

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tarkibidagi mustamlaka hududlardan biri bo'lib, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida murakkab jarayonlar kechayotgan edi. Mahalliy aholining davlat boshqaruvidagi ishtiroki cheklangan, iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari teng bo'lmagan va milliy ta'lim hamda madaniyat masalalarida qator muammolar mavjud edi. Bunday sharoitda Turkiston ziyolilari orasida milliy o'zlikni anglash, ma'rifat va siyosiy huquqlarni kengaytirish g'oyalari kuchaydi.

Bu jarayon, ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Mustafo Cho'qay va boshqa taraqqiyparvarlar bilan bir qatorda Abdulhamid Cho'lpon ham milliy uyg'onish jarayonining faol ishtirokchilaridan biri bo'ldi.

Cho'lponning tarixiy ahamiyati shundaki, u faqat adabiyot vakili sifatida emas, balki o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini anglagan jamoat arbobi sifatida ham faoliyat olib bordi. U 1914-yildan boshlab "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan hamkorlik qilgan, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etuvchi maqola va badiiy asarlar yaratgan. Manbalarda uning Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqligi sabablarini mustamlakachilik siyosati bilan bog'lagani qayd etiladi. 1917-yilgi siyosiy voqealar Cho'lpon dunyoqarashida yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Fevral inqilobidan keyin imperiyada siyosiy erkinliklar masalasi kun tartibiga chiqdi. Turkistonda esa mahalliy xalqlarning siyosiy huquqlarini ta'minlash va o'zini o'zi boshqarish masalasi tobora dolzarb tus oldi.

1917-yil Rossiya imperiyasi tarixida keskin siyosiy o'zgarishlar yili bo'ldi. Fevral inqilobi natijasida imperiya monarxiyasi tugatildi va Muvaqqat hukumat tashkil etildi. Rossiya imperiyasining boshqa hududlari qatori bu jarayon Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Turkistonda siyosiy hayot jonlandi. Turli siyosiy, ijtimoiy va madaniy tashkilotlar shakllana boshladi. Milliy ziyolilar xalqning siyosiy huquqlarini kengaytirish, ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda Turkistonning siyosiy maqomini o'zgartirish masalalarini ilgari surdilar. 1917-yil aprelida Toshkentda Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqirildi. Unda o'lkaning kelajagi, boshqaruv tizimi, ta'lim, yer-suv, diniy va boshqa ijtimoiy masalalar muhokama qilindi. Qurultoy milliy siyosiy kuchlarning tashkiliy jihatdan birlashishida muhim bosqich bo'ldi. Keyingi oylar davomida ham bir qator qurultoylar o'tkazilib, Turkistonning siyosiy kelajagi masalasi muhokama qilindi.

Bu davrda jadidchilik harakati ma'rifiy yo'nalishdan siyosiy yo'nalishga o'ta boshladi. Milliy ziyolilar faqat maktab va maorif masalalari bilan cheklanib qolmay, davlat boshqaruvi va siyosiy huquqlar haqida ham faol fikr bildirdilar. Cho'lpon ham ana shu siyosiy-ma'rifiy muhitda faoliyat yuritgan yosh ziyolilardan biri edi. Uning 1917-yilga kelib ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqishi kuchayganini davriy matbuot materiallari ham ko'rsatadi. Jumladan, u "El bayrog'i" kabi milliy matbuot nashrlarida faol qatnashgan. 1917-yil sentyabridagi Turkiston musulmonlarining uchinchi qurultoyida oziq-ovqat va mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat masalalarida fikr bildirgani haqida tarixiy matbuot ma'lumotlari mavjud.

Demak, Cho'lponni faqat badiiy ijodkor sifatida emas, balki o'z davridagi siyosiy va ijtimoiy muammolarga munosabat bildirgan yosh ziyoli sifatida baholash zarur. 1917-yil kuziga kelib Turkistonning siyosiy kelajagi masalasi yanada keskinlashdi. Petrogradda bolsheviklar hokimiyatni egallaganidan so'ng Turkistondagi siyosiy vaziyat ham tubdan o'zgardi.

1917-yil noyabrida Toshkentda Sovet hokimiyati shakllandi. Biroq uning tarkibida mahalliy musulmon aholining vakillari deyarli ishtirok etmadi. Bu holat Turkiston milliy ziyolilarining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Manbalarda 1917-yil 15-22-noyabr kunlari tashkil etilgan Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga birorta ham milliy vakil kiritilmagani qayd etiladi.

Shu vaziyatda milliy taraqqiyparvar kuchlar Turkistonning siyosiy maqomi masalasini mustaqil ravishda hal etishga kirishdilar. 1917-yil 26-28-noyabr kunlari Qo'qonda Butun Turkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy Turkistonning siyosiy kelajagi masalasini muhokama qildi. Unda Turkistonni hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qilish g'oyasi ilgari surildi. Natijada 27-noyabr kuni Turkiston Muxtoriyati tashkil etilganligi e'lon qilindi.

Muxtoriyatning markazi Qo'qon shahri bo'ldi. Hukumat tarkibida Muhammadjon Tinishboyev, Mustafo Cho'qay, Ubaydulla Xo'jayev, Islom Shoahmedov va boshqa siyosiy arboblarni faoliyat olib bordilar. Hukumat dastlabki bosqichda Turkistonda qonuniy boshqaruvni yo'lga qo'yish, millatlararo hamkorlikni ta'minlash va o'lkaning siyosiy huquqlarini himoya qilishni maqsad qilgan edi.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi o'lka tarixida muhim siyosiy hodisa bo'ldi. U mustamlakachilik sharoitida yashab kelgan mahalliy xalqlarning siyosiy o'zligini namoyon etish va o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishining ifodasi edi.

Tarixchi Q. Rajabov tadqiqotlarida ham 1917-yil noyabridan 1918-yil fevraligacha faoliyat ko'rsatgan Turkiston Muxtoriyati hukumati va Milliy Majlisining tarixiy o'rni alohida qayd etiladi. Ushbu xulosalar arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va zamondoshlar xotiralari asosida chiqarilgani ta'kidlangan.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi milliy ziyolilar orasida katta umid uyg'otdi. Cho'lpon ham bu tarixiy voqeani katta quvonch bilan qarshi olgan ijodkorlardan biri bo'ldi.

1917-yilga kelib Cho'lponning milliy istiqloлга oid qarashlari ancha shakllangan edi. U millatning ma'rifiy taraqqiyoti bilan siyosiy erkinligini bir-biridan ajratmagan. Uning fikricha, xalq o'z tarixini, tilini, madaniyatini va milliy manfaatlarini anglamas ekan, haqiqiy taraqqiyotga erisha olmaydi.

Cho'lponning Muxtoriyat bilan bog'liq faoliyatidagi eng muhim dalillardan biri uning **"Ozod turk bayrami"** she'ridir. Mazkur asar 1917-yil noyabrida Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi munosabati bilan yaratilgan.

Tarixiy manbalarda Cho'lponning ushbu she'ri Muxtoriyatni olqishlovchi asar sifatida yozilgani va varaqa tarzida xalq orasida tarqatilgani qayd etiladi. She'r keyinchalik Turkiston

Muxtoriyatining madhiyasi sifatida ijro etilgan. Bu fakt Cho'lpon ijodining tarixiy mazmunini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Chunki shoir she'r orqali shunchaki siyosiy hodisani tabriklamagan. U Muxtoriyat timsolida milliy davlatlilik, hurriyat, Vatan va milliy birlik g'oyalarini ifodalagan.

She'rning asosiy mazmunida Turkistonliklarning milliy g'ururi, Vatanga sadoqati va yangi siyosiy davrga bo'lgan umidi mujassam edi. Tadqiqotlarda mazkur she'r O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi ilk madhiya sifatida baholanadi.

"Ozod turk bayrami" she'rini faqat adabiy asar sifatida o'rganish uning tarixiy ahamiyatini to'liq ochib bermaydi. Ushbu asar 1917-yil oxiridagi Turkiston jamiyatining siyosiy va ma'naviy kayfiyatini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir.

She'rning mazmunida Muxtoriyatning e'lon qilinishi bilan bog'liq quvonch, milliy birlik va Vatan himoyasi g'oyalari aks etadi. Asarda "hurriyat", "adolat", "Vatan", "Turkiston", "Turon" kabi tushunchalarning birgalikda qo'llanishi o'sha davr milliy ziyolilarining siyosiy dunyoqarashini tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, Muxtoriyatning xalq tomonidan bayramona kutib olingani haqidagi ma'lumotlar tarixiy jihatdan muhimdir. Manbalarga ko'ra, she'r varaqa shaklida chop etilgan va ko'plab joylarda, jumladan, maktablar, ko'chalar va yig'inlarda ijro etilgan. She'rning matni ilk bor mustaqillik arafasidagi 1991-yil 20-sentabrda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan. Uning asl nusxalaridan birini Qo'qon o'lkashunoslik muzeyi xodimi Ahmadjon Madaminov topgani haqida manbalarda ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar tarixiy xotirani tiklash nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Chunki sovet davrida Turkiston Muxtoriyati va unga aloqador milliy siyosiy harakatlar tarixiga biryozlama baho berilgan edi.

Mustaqillik yillarida esa Muxtoriyat tarixi, uning tashkilotchilari va milliy ziyolilarning faoliyati qayta o'rganila boshlandi. Cho'lponning "Ozod turk bayrami" asari ham ana shu tarixiy merosning muhim qismi sifatida ilmiy muomalaga qaytdi.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi tasodifiy hodisa emas edi. U 1917-yil davomida shakllangan milliy siyosiy jarayonlarning natijasi bo'ldi.

Muxtoriyat tarafdorlari Turkistonning hududiy yaxlitligini saqlash, mahalliy aholining siyosiy huquqlarini ta'minlash, milliy ta'lim va madaniyatni rivojlantirish kabi masalalarga katta e'tibor qaratdilar. Cho'lponning ijodiy qarashlari ham mazkur jarayonning ma'naviy tomonini aks ettirdi. U millatning siyosiy erkinligini ma'rifat va madaniy taraqqiyot bilan bog'lagan. Bu jihatdan Cho'lponning 1914-yildan boshlangan ijodiy faoliyati bilan 1917-yildagi siyosiy faoliyati o'rtasida uzviylik mavjud. U dastlab xalqni ilm-ma'rifatga chaqirgan bo'lsa, 1917-yilga kelib milliy siyosiy huquqlar masalasiga ham faol munosabat bildira boshladi. Shuning uchun Cho'lponning Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashi uning avvalgi ma'rifiy qarashlarining tabiiy davomidir. Turkiston Muxtoriyati uzoq yashamadi. Bolsheviklar Muxtoriyatni o'z hokimiyatiga siyosiy xavf sifatida baholadilar. 1918-yil boshlarida Qo'qon atrofidagi vaziyat keskinlashdi.

1918-yil fevralida sovet qo'shinlari Qo'qonga qarshi harbiy harakat boshladi. Natijada Muxtoriyat hukumati tugatildi. Qo'qon va uning atrofida og'ir to'qnashuvlar yuz berdi. Tarixiy adabiyotlarda bu voqealar "Qo'qon fojiasi" nomi bilan ham tilga olinadi. Turkiston Muxtoriyatining faoliyati shu tariqa qisqa muddat – qariyb 72 kun davom etdi.

Muxtoriyatning tugatilishi Turkiston milliy ziyolilari uchun katta siyosiy va ma'naviy zarba bo'ldi. Biroq milliy istiqloq g'oyasi yo'qolib ketmadi. Aksincha, keyingi yillarda bu g'oya turli ko'rinishlarda adabiyot, matbuot va ijtimoiy-siyosiy harakatlarda davom etdi. Cho'lpon ham keyingi faoliyatida milliy ruhda asarlar yaratishda davom etdi. U "Chig'atoy gurungi", "Nashri maorif", "Turon" teatri kabi madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda faoliyat yuritdi. Shu bilan birga, milliy o'zlik va ma'rifat masalalarini adabiyot orqali ilgari surishda davom etdi. Demak, 1917–1918-yillardagi siyosiy voqealar Cho'lpon ijodida alohida tarixiy bosqichni tashkil etadi. Muxtoriyatning tugatilishi uning ijodidagi ozodlik, Vatan va milliy o'zlik masalalarining ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Cho'lponning tarixiy merosini o'rganishda ikki jihatga e'tibor berish lozim. Birinchidan, Cho'lpon XX asr boshidagi milliy uyg'onish jarayonining bevosita ishtirokchisi bo'lgan. U o'z davrining siyosiy va ijtimoiy muammolarini yaxshi anglagan hamda milliy matbuot orqali

jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan, uning ijodiy merosi o'sha davr xalqining ruhiy holatini o'rganishda muhim tarixiy manba vazifasini bajaradi. "Ozod turk bayrami" bunga yaqqol misoldir.

Ushbu she'r orqali 1917-yil noyabrda Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi xalqning ma'lum qismi tomonidan qanday ruhda kutib olinganini ko'rish mumkin. Unda siyosiy erkinlik va milliy davlatlilikka bo'lgan umid, Vatanga muhabbat va milliy birlik g'oyalari aks etgan. Shuningdek, Cho'lpon faoliyati Turkiston jadidlarining ma'rifiy harakatdan siyosiy harakatga o'tish jarayonini ham ko'rsatib beradi. Bu jihat uning shaxsini faqat adabiyot tarixi doirasida emas, balki O'zbekistonning XX asr boshlaridagi siyosiy tarixida ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. XX asr boshlarida Turkiston tarixida yuz bergan milliy uyg'onish jarayonlari o'zbek xalqining siyosiy tafakkuri va milliy o'zligini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi. 1917-yilgi Fevral inqilobidan keyin siyosiy faollikning kuchayishi Turkiston ziyolilarini o'lkaning kelajagi haqida amaliy siyosiy qarorlar qabul qilishga undadi. 1917-yil 27-noyabrda Qo'qonda Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi ushbu jarayonning eng muhim natijalaridan biri bo'ldi. Muxtoriyat qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, u Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik va o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan intilishini tarixda namoyon etdi.

Abdulhamid Cho'lpon ushbu tarixiy jarayonning faol ma'naviy ishtirokchilaridan biri bo'ldi. Uning 1917-yilda yaratgan "Ozod turk bayrami" she'ri Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlagan milliy ruhda muhim asar bo'lib, tarixiy manbalarda Muxtoriyat madhiyasi sifatida qayd etiladi. Mazkur asarning tarixiy ahamiyati shundaki, unda o'sha davr milliy ziyolilarining asosiy siyosiy-ma'naviy tushunchalari – Vatan, hurriyat, adolat, milliy birlik va ozodlik g'oyalari mujassamlashgan. Turkiston Muxtoriyatining 1918-yil fevralida tugatilishi milliy davlatchilik yo'lidagi dastlabki siyosiy tajribaning yakuniga olib keldi. Biroq Muxtoriyat g'oyasi xalq tarixidan o'chmadi. Keyingi davrlarda ham milliy istiqlol va ozodlik g'oyalari turli shakllarda davom etdi. Cho'lponning hayoti va ijodiy faoliyati ushbu tarixiy jarayonlarning ma'naviy aks-sadosi sifatida katta ahamiyatga ega. U o'z ijodi orqali milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va ozod fikr g'oyalarini targ'ib qildi. Shu sababli Cho'lpon merosini tarixiy manbalar bilan birgalikda o'rganish XX asr boshlaridagi Turkistonning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy tarixini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati tarixi va uning siyosiy faoliyatiga oid tadqiqotlar. – Toshkent.
2. Cho'lpon. *Asarlar*. – Toshkent.
3. Cho'lpon. *Kecha va kunduz*. – Toshkent.
4. "El bayrog'i" gazetasi, 1917-yilgi sonlar.
5. Turkiston Muxtoriyati tarixiga oid arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari.
6. Oyina. "Cho'lpon" biografik-ma'lumotnoma materiali.